ISSN:2308-5703
Impact factor:13.5 *International Multidisciplinary Online Journal* September, 2026

QORAQALPOG‘ISTON FERMER XO‘JALIGI SHAROITIDA TUYA GO‘SHTI ISHLAB CHIQARISHDA YOSH HAYVONLARNING O‘SISH VA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

A.Abdimuratov
Qoraqalpog‘iston qishloq xo’jaligi va agrotexnologiyalar instituti
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.22834867

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasining keskin kontinental iqlimi va cho‘l-yaylov sharoitida tuya go‘shti yetishtirish samaradorligi, yosh tuyalarning o‘sish va rivojlanishi yosh dinamikasi bo‘yicha tahlil qilindi va xulosalar berildi.

Kalit so‘zlar: Bir o‘rkachli tuya (Dromeder), bota, tirik vazn, o‘sish va rivojlanish, cho‘l yaylovlari.

Kirish. Tuyachilik Qoraqalpog‘iston Respublikasining cho‘l va yarim cho‘l hududlarida muvaffaqiyatli rivojlanayotgan kam sonli chorvachilik tarmoqlaridan biridir. Qoraqalpog‘iston tuyalarining genofondida turkman arvan dromedari, qozoq baktriani va ularning duragaylari ham mavjud. Sof zotli turkman dromedarlari genofondidan foydalanib yaratilgan bir o‘rkachli tuyalarning katta bosh soni mavjud. Biologik xususiyatlariga ko‘ra, tuya boshqa turdagi hayvonlar tomonidan yomon iste’mol qilinadigan yoki umuman iste’mol qilinmaydigan o‘simliklardan samarali foydalanish, sezilarli darajada sho‘rlangan suvni siyrak qabul qilish (uch-besh kunda bir marta) bilan qanoatlanish qobiliyatiga ega.

Muallif [1] yozishicha dunyoning barcha cho‘l hududlarida bir o‘rkachli tuyalar mavjud hisoblanadi. Ularning xalq xo‘jaligida yetishtirishni asosan sut, go‘sht va jun olish hisoblanadi.

[3], ma’lumotiga ko‘ra barcha qishloq xo‘jalik hayvonlari ichida eng chidamli bu tuyalar hisoblanadi. Chunki dunyo miqyosida bir o‘rkachli tuyalar cho‘l, qumli, keskin iqlim sharoitiga tez moslashuvchan hayvon hisoblanib, mahsuldorlik xususiyatlari bo‘yicha arzon tannarxida qimmatbaho va sifatli mahsulot beradigan hayvonlar qatoriga kiradi.

Tadqiqot joyi va uslublar. Tadqiqotlar Taxtako‘pir tumanidagi "Durdona-Aydana" tuyachilik fermer xo‘jaligida olib borildi. Tajribadagi hayvonlarning tana o‘lchamlari amaldagi Tuya bonitirovkasi bo‘yicha yo‘riqnoma [2001] bo‘yicha o‘rganildi. Hayvonlarning tirik vazni statsionar tarozilarda individual tortish yo‘li bilan, shuningdek hisoblash usuli bilan aniqlandi.

Tahlil va natijalar. Qoraqalpog‘istonning cho‘l va yarim cho‘l yaylov sharoitida dromedar tuyalarning rivojlanishi ularning konstitutsion tipiga bevosita bog‘liq hisoblanadi. Biz tadqiqotimizda nozik, dag‘al va mustahkam konstitutsiya tipga ega dromedar tuyalarning tirik vazning yosh dinamikasi bo‘yicha o‘zgarishi o‘rganildi va olingan ma’lumotlar quydagi 1-jadvalda keltirildi.

1-jadval

Dromedar tuyalarning tirik vaznining yosh dinamikasida o‘zgarishi (kg)

Yosh davri	Nozik (kg)	Mustahkam (kg)	Dag‘al (kg)	Tip bo‘yicha o‘rtacha (kg)
Tug‘ilganda	33,5 ± 0,8	37,2 ± 0,9*	40,1 ± 1,1	36,9
6 oylik	148,0 ± 2,5**	168,5 ± 3,1	175,0 ± 3,4	163,8
12 oylik	225,0 ± 3,8*	258,0 ± 4,2	266,0 ± 4,5	249,6
18 oylik	310,0 ± 4,6	352,0 ± 5,1	360,0 ± 5,8**	340,6
24 oylik	375,0 ± 5,5	425,0 ± 6,0*	438,0 ± 6,4	412,6
O‘rtacha	341,5 kg	387,8 kg	397,9 kg	375,7 kg

*P<0,001, **P<0,005

1-jadvalda ko‘rinib turibdiki sut emish davrida (0–6 oy) barcha tiplarda jadal o‘sish kuzatiladi. Dag‘al tipdagi botalarda sutkalik o‘rtacha vazn ortishi 749 g, mustahkam tipda 729 g, nozik tipda esa 636 g ni tashkil etdi. Bu davrda ona suti hazmliligi va bahorgi yaylov ot-xashaklari hal qiluvchi rol o‘ynaydi. 6–12 oylik davrda sutdan ajratish hamda qishki noqulay iqlim omillari sababli barcha tiplarda o‘sish sur’ati sekinlashdi. 18–24 oylik davrida hayvonlar yaylov va qo‘shimcha oziqlantirish hisobiga yana jadal go‘sht va yog‘ (o‘rkach) to‘play boshladi. 24 oyligida dag‘al tipdagi tuyalar 438,0 kg, mustahkam tipdagilar 425,0 kg tirik vaznga ega bo‘ldi.

Hayvonlarning mutlaq o‘sish ko‘rsatkichlari ularning o‘sish va rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadigan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Bizning ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borildi va olingan ma’lumotlar quydagi 2-jadvalda keldirildi.

2-jadval

Dromedar tuyalarning tirik vaznining mutlaq o‘sish ko‘rsatkichlari (kg)

Yoshi (oylar bo‘yicha)	Nozik tip (kg)	Mustahkam tip (kg)	Dag‘al tip (kg)	Tip bo‘yicha o‘rtacha (kg)
0-6 oy	114,5± 0,9	131,3±1,3	134,9±1,32	126,9±1,1
6-12 oy	77,0± 0,6	89,5±0,61	91,0±0,78	85,8±0,68
12-18 oy	85,0± 0,8	94,0±0,82	94,0±0,82	91,0±0,81
18-24 oy	65,0± 0,5	73,0±0,6	78,0±0,7	72,0±0,57
Jami (0-24 oy)	341,5±2,3	387,8±2,8	397,9±3,5	375,7±3,4

2-jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki eng yuqori mutlaq vazn ortishi barcha tiplarda dastlabki 6 oylikda kuzatildi. Dag‘al tipdagi tuyalar 134,9 kg, mustahkam tip 131,3 kg, nozik tip esa 114,5 kg tirik vaznga ega bo‘ldi. Bu ona suti va bahorgi unumdor yaylov oziqlarining yuqori hazmliligi bilan bog‘liq. Sutdan ajratish (6-12 oy) va qishki noqulay sharoit tufayli mutlaq o‘sish dinamikasi 30-35% ga sekinlashdi (o‘rtacha 85,8 kg). 12-18 oyda bahor-yozgi yaylov davriga to‘g‘ri kelganligi sababli o‘sish sur’ati qayta tiklanib, mutlaq vazn ortishi o‘rtacha 91,0 kg ni tashkil etdi.

Tjribadagi hayvonlarning nisbiy o‘sish ko‘rsatkishlari orqali ularning o‘sish tezligi aniqlandi va olingan ma’lumotlar 1-rasmda keltirildi.



1-rasm Tajribadagi hayvonlarning nisbiy o‘sish ko‘rsatkichlari (%)

1-rasm ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, Hayvonlarning yoshi ulg‘aygani sari nisbiy o‘sish ko‘rsatkichi keskin kamayib bordi. Dastlabki 6 oyda nisbiy o‘sish 125–127% ni tashkil etgan bo‘lsa, 18–24 oylik davrga kelib bu ko‘rsatkich 18,7–19,5% gacha tushdi.

Xulosalar. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasi bo‘yicha quydagi xolusalar qilindi.

1. Qoraqalpog‘istonning keskin kontinental iqlimi va cho‘l-yaylov sharoitida yosh dromedar tuyalarning o‘sish va rivojlanish energiyasi ularning konstitutsion tipiga bevosita bog‘liq.

2. Dag‘al tipdagi botalar tug‘ilishdagi eng yuqori tirik vazn (40,1 kg) va 24 oyligida maksimal tirik vaznga (438,0 kg) erishishi bilan ajralib turdi. Mustahkam tipdagi tuyalar o‘sish dinamikasining mutanosibligi, organizmning noqulay cho‘l omillariga yuqori moslashuvchanligi va 24 oyligida 425,0 kg tirik vaznga erishib, 52,0–53,5% so‘yim chiqimi hamda sifatli, tola tarkibi mayda go‘sht berishi bilan eng maqbul biologik va xo‘jalik ko‘rsatkichlarini namoyon etdi.

3. 0-6 oylik davrda barcha konstitutsiya tiplarida eng yuqori o‘sish ko‘rsatkichi kuzatildi. Ushbu davrda mutlaq vazn ortishi o‘rtacha 126,9 kg ni, nisbiy o‘sish ko‘rsatkichi esa 125,4-127,7% ni tashkil etdi. Bu holat tuyalarning biologik o‘sish imkoniyatlari va ona suti hazmliligining yuqoriligi bilan izohlanadi.

4. Qoraqalpog‘iston fermer xo‘jaliklari sharoitida yosh tuyalarni 18-24 oylik yoshida so‘yimga ajratish eng yuqori iqtisodiy va sifat ko‘rsatkichlarini beradi. 24 oylik mustahkam va dag‘al tipdagi tuyalardan 197-227 kg tana go‘shti va 15-22 kg o‘rkach yog‘i olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Баймуканов Д. А., Бурамбаева Н. Б., Исхан К. Ж. Рост, развитие и мясная продуктивность молодняка верблюдов в условиях полупустынной зоны // *Известия НАН РК. Серия аграрных наук*. – 2019. – № 4 (52). – С. 25–32.
2. Турдиев С. А., Есимбетов Р. Д. Qoraqalpog‘iston sharoitida tuyachilikni rivojlantirish va yosh botalarni o‘stirish texnologiyasi // *Chorvachilik va naslchilik ishi*. – Toshkent, 2021. – № 2. – B. 18–22.
3. Faye B. Camel meat production and processing: Open openings for a new meat sector // *Moroccan Journal of Agricultural Sciences*. – 2020. – Vol. 1, No. 3. – Pp. 112–119.
4. Ажибеков А. С., Нарматов А. М. Динамика живой массы и конституциональные особенности одногорбых верблюдов (дромедаров) // *Вестник Кыргызского национального аграрного университета*. – Бишкек, 2022. – № 1 (60). – С. 45–50.
5. Kaskyrbayev A., Baimukanov A., Chindaliyev A. Growth assessment and body measurements in dromedary camel calves under arid rangeland conditions // *Journal of Camel Practice and Research*. – 2022. – Vol. 29, No. 2. – Pp. 145–151.